

## TA'LIM JARAYONIDA KONSEPT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

*Rustamova Iqbol*

*Payariq tumani 19-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada konsept tushunchasining nazariy asoslari hamda uning o'zbek tilshunosligidagi talqinlari tahlil qilinadi. Konseptning inson tafakkuri, milliy mentalitet va madaniyat bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, konsept tushunchasining "tushuncha", "ma'no", "mazmun" kabi mental hodisalar bilan o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim jarayonida konseptual yondashuvni qo'llash, o'quvchilarda konseptual fikrlashni shakllantirish hamda zamonaviy ta'lim tizimida uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, konseptga asoslangan ta'lim modeli o'quvchilarning analitik va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *konsept, konseptologiya, lingvokognitiv yondashuv, mental struktura, tafakkur birligi, tushuncha, ma'no, konseptual fikrlash, milliy mentalitet, ta'lim jarayoni.*

### THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT NOTION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND THE PROBLEMS OF ITS FORMATION

*Iqbol Rustamova*

*Teacher of Secondary School No. 19, Payariq District*

**Abstract.** *This article analyzes the theoretical foundations of the concept notion and its interpretations in Uzbek linguistics. The relationship of the concept with human thinking, national mentality, and culture is examined from a scientific and theoretical perspective. In addition, the interrelation of the concept with other mental phenomena such as "notion," "meaning," and "content" is considered. The article also discusses*

*the application of a conceptual approach in the educational process, the formation of conceptual thinking among students, and the problems encountered in the modern education system. Furthermore, it substantiates that a concept-based educational model serves as an important factor in developing students' analytical and critical thinking skills.*

**Keywords:** *concept, conceptology, linguocognitive approach, mental structure, unit of thinking, notion, meaning, conceptual thinking, national mentality, educational process.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ «КОНЦЕПТ» В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ПРОБЛЕМЫ ЕГО ФОРМИРОВАНИЯ

*Рустамова Икбол*

*Учитель средней общеобразовательной школы №19 Пайарыкского района*

**Аннотация.** *В данной статье анализируются теоретические основы понятия «концепт» и его интерпретации в узбекском языкознании. С научно-теоретической точки зрения рассматривается взаимосвязь концепта с человеческим мышлением, национальным менталитетом и культурой. Также исследуется соотношение концепта с другими ментальными явлениями, такими как «понятие», «значение» и «содержание». В статье анализируются вопросы применения концептуального подхода в образовательном процессе, формирования концептуального мышления у учащихся, а также проблемы, возникающие в современной системе образования. Кроме того, обосновывается, что модель обучения, основанная на концепте, является важным фактором развития аналитического и критического мышления учащихся.*

**Ключевые слова:** *концепт, концептология, лингвокогнитивный подход, ментальная структура, единица мышления, понятие, значение, концептуальное мышление, национальный менталитет, образовательный процесс.*

So'nggi yillarda tilshunoslik, kognitiv fanlar va pedagogika kesishgan nuqtada shakllanayotgan ilmiy yo'nalishlar orasida konseptologiya alohida o'rin egallamoqda. Zamonaviy ilmiy tafakkurda **“konsept”** tushunchasi nafaqat tilshunoslikning nazariy kategoriyasi, balki inson tafakkuri, madaniyati va ta'lim jarayonini o'rganishda muhim metodologik vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, globallashtirish jarayonida milliy madaniyat, mentalitet va til birliklari orqali shakllanadigan konseptual tizimlarni o'rganish ta'lim mazmunini boyitish hamda yosh avlod tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida “konsept” atamasi 1990-yillardan boshlab faol qo'llanila boshladi. Mazkur davrdan boshlab tilshunoslar konseptni tahlil qilish orqali til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga harakat qila boshladilar. Biroq hozirgi kungacha konseptning aniq va yagona ta'rifi yuzasidan ilmiy hamjamiyatda umumiy kelishuv mavjud emas. Bu holat, bir tomondan, konseptning murakkab va ko'p qirrali tabiatini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uni ta'lim tizimida qo'llash masalalarini ham dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida bilim berish jarayoni faqat ma'lumot uzatish bilan cheklanmaydi. U o'quvchilarda mustaqil tafakkur, konseptual fikrlash va madaniy identifikatsiyani shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan konsept tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish hamda uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Konsept ko'pincha inson ongida shakllanadigan mental birlik sifatida talqin qilinadi. U borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi bilimlar, tasavvurlar, tajribalar hamda madaniy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Konsept inson tafakkurining mahsuli bo'lib, u til orqali ifodalanadi va madaniyat orqali shakllanadi.

O'zbek tilshunosligida konseptologiya yo'nalishining rivojlanishida bir qator olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, Sh.Safarov konsept tushunchasining murakkabligini alohida ta'kidlab, uning to'liq va mukammal ta'rifini berish hozircha mushkul ekanligini qayd etadi. Olimning fikricha, konsept moddiy shaklga ega bo'lmagan, inson ongida shakllanadigan mental struktura bo'lib, u idrok va

tafakkur jarayonida hosil bo'ladi [5: 185-188]. Shuningdek, u "tushuncha", "ma'no" va "mazmun" kabi mental hodisalar bilan chambarchas bog'liqdir [6:13].

M.Rahmatova konseptni inson faoliyati davomida to'plangan bilimlarning ongda aks etishi sifatida talqin qiladi. Olimaning fikricha, inson ongidagi bunday mental reprezentatsiyalar milliy madaniyatning aksidir. Demak, konsept nafaqat individual tafakkur mahsuli, balki jamiyat tajribasining ham ifodasi hisoblanadi [4:8].

O.N.Anorqulova tushuncha va konsept munosabatini tahlil qilar ekan, tushunchani predmet va hodisalarning muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli sifatida izohlaydi. Tushuncha analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalar orqali shakllanadi. Bu jarayon so'z orqali ifodalanadi va natijada konseptual maydon yuzaga keladi [1:20].

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, so'z konseptni ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. So'zlar tarixiy rivojlanish jarayonida o'zgarib boradi va yangi ma'nolarni hosil qiladi. Masalan, ota konseptini ifodalovchi "padar", "padari buzrukvor", "pushtipano", "qiblagoh" kabi tarixiy birliklar bugungi kunda "dada" so'zi bilan ifodalanmoqda [2:599-602]. Bu jarayon til va madaniyatning dinamik rivojlanishini ko'rsatadi.

D.U.Ashurova konsept tushunchasiga alohida yondashib, har qanday tushunchani konsept deb atash to'g'ri emasligini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, faqat milliy madaniyat va dunyoqarashda muhim o'rin tutuvchi tushunchalargina konsept maqomiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa konseptning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida uchrayotgan muammolardan biri o'quvchilarda konseptual fikrlashning etarli darajada shakllanmaganligidir. Ko'pincha, o'quv jarayoni faktologik ma'lumotlarni yodlashga asoslanib qolmoqda. Natijada o'quvchilar bilimni chuqur anglab etmaydi, balki uni mexanik tarzda eslab qolishga harakat qiladi. Konseptual yondashuv esa o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar turli bilimlar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglaydi, muayyan hodisa yoki tushunchaning mohiyatini chuqurroq tushunadi.

Ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish zarur:

Birinchidan, o'quv dasturlarida konseptual yondashuv etarli darajada aks etmagan. Ko'plab fanlarda tushunchalar tizimi izchil shakllantirilmaganligi sababli o'quvchilar bilimlar o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni ko'ra olmaydi.

Ikkinchidan, dars jarayonida tahliliy va ijodiy fikrlashga etarli e'tibor berilmaydi. O'quvchilar ko'proq tayyor ma'lumotlarni qabul qilish bilan cheklanadi.

Uchinchidan, pedagogik metodikalar etarli darajada yangilanmagan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, kognitiv yondashuvga asoslangan metodlar ta'lim jarayonida keng qo'llanilmayapti.

Bu muammolarni hal etish uchun ta'lim jarayonida konseptual tahlil, klaster usuli, konsept xaritalari (concept map), muammoli ta'lim, interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Konseptga asoslangan ta'lim modeli o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu model orqali o'quvchilar bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtiradi, turli tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni anglaydi hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Konseptual yondashuv quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- o'quvchilarda analitik va tanqidiy tafakkur rivojlanadi;
- bilimlarni tizimli o'zlashtirish imkoniyati kengayadi;
- til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kuchayadi;
- o'quvchilarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat shakllanadi.

Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida konseptologiya yondashuvini qo'llash muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, konsept tushunchasi zamonaviy tilshunoslik va pedagogika kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy kategoriya hisoblanadi. U inson tafakkuri, til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ifodalaydi.

O'zbek tilshunosligida konseptologiya yo'nalishi hali nisbatan yangi bo'lsa-da, ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar ilmiy jihatdan muhim natijalar bermoqda. Ayniqsa, konsept tushunchasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning konseptual fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish hamda milliy

madaniyatni anglashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida konseptual yondashuvni keng joriy etish, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Anorqulova O.N. "O'zbek tilida "ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Samarqand, 2023. – B.140. 20-b.
2. Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi. (2025). "OILA" KONSEPTINING QIYOSIY TAHLILI .*KONFERENSIYALAR*, 1(1), 599-602. <https://scientific-jl.com/conf/article/view/21705>
3. Каримов У.Н. Концепт тушунчаси ва унинг бадий адабиётдаги моҳияти // ЎзМУ хабарлари, 2017. – №1/5. – Б. 416-417.
4. Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида "Гўзаллик" концептининг лисоний хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Бухоро, 2019. 8-бет.
5. Сафаров Ш. «Концепт» ҳодисаси ҳақида // Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари). – Самарқанд, 2010. – 185-188-бетлар;
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 13-бет.